

## KONSTRUKTIV O`YINLAR ( LEGO, BLOKLAR, MOZAIKA) ORQALI TIL O`RGANISHNI INTEGRATSIYALASH.

Andijon Davlat Chet tillari instituti

*Ingliz filogiyasi, o`qitish metodikasi va tarjima nazariyasi fakulteti*

*Maktabgacha va boshlang`ich ta`limda xorijiy til yo`nalishi*

201- guruhi talabasi

**Tursunboyeva Shahzoda**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada konstruktiv o`yinlarning (Lego, bloklar, mozaika) til o`rganish jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari o`rganiladi. Tadqiqot davomida kichik yoshdagi bolalarda nutq rivojiga ta`sir etuvchi omillar, ayniqsa, o`yinlar orqali til o`rganishning afzalliklari tahlil qilinadi. Tajribalarga asoslangan holda o`yinlar vositasida kommunikativ ko`nikmalarni shakllantirishning samaradorligi ko`rsatib beriladi.

**Annotation :** This article explores the integration of constructive play (Lego, blocks, mosaics) into language learning. It analyzes how such activities influence speech development in young children and highlights the benefits of learning through play. Based on research findings, the paper demonstrates the effectiveness of fostering communication skills via constructive games.

**Аннотация:** В статье рассматриваются возможности интеграции конструктивных игр (Лего, блоки, мозаика) в процесс изучения языка. Анализируются факторы, влияющие на развитие речи у детей младшего возраста, а также преимущества игрового обучения. На основе исследований показана эффективность формирования коммуникативных навыков с помощью игр.

**Kalit So‘zlar:** konstruktiv o`yinlar, Lego, til o`rganish, nutq rivoji, kommunikativ ko`nikmalar.

**Keywords:** constructive play, Lego, language learning, speech development, communication skills.

**Ключевые Слова:** конструктивные игры, Лего, изучение языка, развитие речи, коммуникативные навыки.

## KIRISH

Zamonaviy ta`lim jarayonida bolalarni o`yin orqali o`qitish usullari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, erta yoshda til o`rganish jarayonini o`yinlar bilan uyg`unlashtirish bola nutqining rivojlanishiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Ushbu maqolada konstruktiv o`yinlarning — Lego, bloklar va mozaikalar — til o`rgatishda qanday foydali vosita sifatida xizmat qilishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida konstruktiv o`yinlar orqali ta`lim berish usuli keng e`tirof etilmoqda. Bu uslub, ayniqsa, til o`rganish jarayonida samarali natijalar berishi bilan ajralib turadi. Konstruktiv o`yinlar — Lego, bloklar, mozaikalar — bolalarning nafaqat mayda motorikasini rivojlantiradi, balki ularning nutqiy faolligini, muloqotga kirishish istagini va ijodiy fikrlashini ham kuchaytiradi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, o`yin faoliyati bola psixikasining eng tabiiy va eng samarali rivojlanish manbai hisoblanadi. Piaget, Vygotsky kabi olimlarning nazariyalarida bolalarning bilish faoliyati aynan o`yin jarayonida shakllanishi, til esa bu faoliyatni ifodalovchi eng asosiy vosita sifatida qaraladi. Konstruktiv o`yinlar esa bu nazariyani amalda qo`llash uchun ideal vositadir. Masalan, Lego konstruktorlari orqali bolalar o`z tasavvurlaridagi inshootlarni yaratadilar. Bu jarayonda ular bir-biri bilan fikr almashadi, buyruqlar beradi, tushuntiradi va savollar beradi. Bunday ijtimoiy o`zaro ta`sirlar esa til birliklarini tabiiy muhitda, kontekstda o`rganishga imkon yaratadi. Ayniqsa, dars davomida bolalarga beriladigan topshiriqlar (masalan, “Qizil tomli uy qur”, “Ko`k eshik qayerda?”, “Do`sting bilan birga minorani barpo qil”) ularning fe`l, sifat,



son va rang kategoriylarini amalda ishlatalishini talab qiladi. Bu esa passiv so`z boyligini aktiv nutqqa aylantirishga xizmat qiladi.

Tajribaviy tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, agar til darslari har doim vizual va kinestetik stimullar bilan boyitilsa, masalan, Lego bilan birligida o`tkazilsa, bolalarning eslab qolish, tushunish va takrorlash darajasi sezilarli oshadi. Masalan, o`tkazilgan eksperimentda 5-6 yoshli bolalar ikki guruhga bo`lindi: bir guruh an`anaviy tarzda dars olib bordi, ikkinchi guruh esa Lego asosidagi topshiriqlar bilan til o`rgandi. Bir oylik nazoratdan so`ng ikkinchi guruhdagi bolalar yangi so`zlar va ifodalarni 37% ko`proq eslab qolganliklari aniqlangan. Bundan tashqari, Bodrova va Leong (2007) tomonidan o`tkazilgan tadqiqotlarda ko`rsatilishicha, o`yin asosidagi topshiriqlar bolalarda kognitiv jarayonlarni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, hikoya tuzish, rolli o`yinlar o`ynash va topshiriqlarni muloqot orqali bajarish ularning kontekstual tafakkurini shakllantiradi. Bu holat nutqning tabiiy, erkin va ifodali rivojlanishiga xizmat qiladi. Bolalar nafaqat o`rganilgan so`zlarni aytadi, balki ularni turli vaziyatlarda qo`llashni ham o`zlashtiradi. Shuningdek, mozaika orqali ranglar va shakllarni ajratish, ularni nomlash, oddiy buyruqlarni bajarish kabi mashg`ulotlar til o`rganish bilan bir qatorda estetik tarbiya va analiz-qiyoslash ko`nikmalarini ham rivojlantiradi. Bloklar bilan ishslash esa konstruktiv mantiqiy fikrlash va fazoviy tushunchani kengaytirish bilan birga, buyruq va tavsiyalar asosida harakat qilishni o`rgatadi. Bularning barchasi bolalarning til bilan bog`liq kognitiv mexanizmlarini rivojlantiradi. Eng muhim, konstruktiv o`yinlar orqali o`rgatish — bu bolalarga bosimsiz, qiziqarli, tabiiy muhitda til o`rganish imkonini yaratadi. Ta`limning bu turi bolalarning o`z-o`zini ifoda etish, muloqotga kirishish, savol berish va javob topish, vazifalarni ijodiy hal etish kabi kompetensiylarini ham rivojlantiradi. Demak, bu yondashuv nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-emotsional jihatdan ham katta foyda keltiradi. Konstruktiv o`yinlarning til o`rganish jarayoniga integratsiyalashgan holda qo`llanilishi, ayniqsa maktabgacha yoshdagagi bolalarda nutq va kommunikativ ko`nikmalarni rivojlantirishda o`zining yuqori samaradorligini namoyon qilishini men o`z tajibalarimda ham kuzatdim. Men Farg`ona viloyatidagi bir maktabgacha ta`lim muassasasida o`tkazgan

amaliyot darslarim davomida bu yondashuvning samaradorligini bevosita kuzatdim va sinovdan o`tkazdim.

Dastlabki darslarda men 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilida shakllarga oid so`zlarni: “circle”, “square”, “rectangle” kabi atamalarni an`anaviy usulda — ya`ni rasmlar orqali tushuntirishga harakat qildim. Ammo kuzatishlarim shuni ko`rsatdiki, bolalar bu so`zlarni eslab qolishda qiynalayapti, ba`zilar esa ularni chalkashtirib yubormoqda. Bu esa meni darsga yangicha yondashuv kiritishga undadi.



Keyingi darslarimda men **Lego konstruktorlaridan** foydalanishga qaror qildim. Lego`lar rang-barangligi, shakl va o`lchamlarining xilma-xilligi sababli bolalarda diqqatni jalg qilish, faol qatnashish istagini uyg`otadi. Dars davomida men har bir Lego`ni qo`limda ko`rsatib, uning shakli bilan tanishtirdim: “This is a red circle”, “Look, a green square”, “What shape is this?”. Bolalar nafaqat ko`rdi, balki o`zlarini ham shu shakldagi Lego`larni topib, ularni takror ayta boshladilar.

Shundan so`ng o`yin elementlari bilan boyitilgan interaktiv metodlarni qo`lladim. Masalan, “**Find What’s Missing**” o`yinida bolalar ko`zlarini yumadi, men esa stol ustidagi Lego`lardan birini yashirdim. Keyin ular ko`zlarini ochib, qaysi shakldagi Lego yo`qolganini topishga harakat qildilar. Bu o`yin bolalarda nafaqat eslab qolish, balki e`tibor, analiz qilish va nomlash qobiliyatini ham rivojlantirdi. Yana bir samarali o`yin “**Rearrange**” deb nomlangan bo`lib, unda men shakllarni ma`lum tartibda joylashtiraman, so`ng bolalar ko`zlarini yutmaga ularning o`rnini almashtiraman. Bolalar ko`zlarini ochgach, shakllarni dastlabki tartibga qaytarishlari kerak bo`ladi. Bu o`yin ham bolalarda shakllarni anglashi, nomlashi va xotirada mustahkamlashlariga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuv ikki dars davomida qo`llanildi. Yakuniy natijalarni tahlil qilganimda quyidagilar aniqlandi: **20 nafar boladan 11 nafari** (ya`ni 55%) asosiy shakllarni to`g`ri nomlay oldi, qolganlar esa kamida bitta shaklni eslab qolgan edi. Bolalar darsga faol

qatnashdi, o`z fikrlarini ifodalashga urinib ko`rishdi va o`yin orqali o`zaro muloqot qilishdi. Eng muhimi, ular bu darslarni kutadigan bo`lib qolishdi, bu esa o`qishga bo`lgan motivatsiyaning oshganini ko`rsatadi.

Bu tajribadan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, konstruktiv o`yinlar bolalarda:

- **Kuzatuvchanlik va diqqatni** kuchaytiradi;
- **Til birliklarini kontekstda ishlatish** imkonini beradi;
- **So`z boyligini kengaytiradi** va ularni faol nutqqa aylantiradi;
- **Ijodiy va mantiqiy fikrlashni** shakllantiradi;
- **Til o`rganish jarayonini qiziqarli, ijobiy hissiyotlar bilan boyitilgan faoliyatga** aylantiradi.

**Xulosa:** Konstruktiv o`yinlarni til o`rganish jarayoniga integratsiyalash, ayniqsa mактабгача та`lim bosqichida, juda samarali yondashuvdir. Bu usul bolalarda nutq rivojini qo`llab-quvvatlaydi, muloqot ko`nikmalarini mustahkamlaydi va ularning o`qishga bo`lgan motivatsiyasini oshiradi. Shunday ekan, o`yinlar asosida darslarni tashkil etish — zamonaviy til o`qitish metodikasining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
3. Whitebread, D., Basilio, M., Kuvalja, M., & Verma, M. (2012). The Importance of Play.
4. Bodrova, E., & Leong, D. J. (2007). Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education.
5. Wood, E., & Attfield, J. (2005). Play, Learning and the Early Childhood Curriculum.